

UDK: 37.01: 82.09

JADID ADABIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING ZAMONAVIY IJTIMOIIY AHAMIYATI

Isabayeva Asida Yusufjonovna

*Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), Tel: +998993232423, E-mail: asida.isabayeva@bk.ru,
ORCID: 0000-0003-1432-9651*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishi va jamiyatdagi roli tahlil qilingan. Jadid adabiyoti, ilm-fan, ta'lim, ijtimoiy adolat va gender tengligi kabi dolzarb mavzularni o'z ichiga olgan. Fitrat va Cho'lponning asarlari misolida yangi janrlarning paydo bo'lishi va ularning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ko'rsatilgan. Jadidlar harakati adabiyotning rivojlanishida, xalqni uyg'onishiga, ta'lim va madaniyatni yangilashga katta hissa qo'shgan. Maqolada, shuningdek, jadid adabiyotining bugungi kunda ham muhimligi va uning zamonaviy adabiyotga ta'siri ta'kidlangan.

Tayanch iboralar: jadid, milliy o'zlik, janr, ta'lim, tarbiya, adabiy uslub, gender tengligi, psixologik tasvir.

UNIQUE FEATURES OF JADID LITERATURE AND ITS CONTEMPORARY SOCIAL SIGNIFICANCE

Isabayeva Asida Yusufjonovna

*Doctoral student at Namangan state pedagogical institute, Doctor of Philosophy
(PhD) in Pedagogical Sciences, Tel: +998993232423, E-mail: asida.isabayeva@bk.ru,
ORCID: 0000-0003-1432-9651*

Abstract. This article analyzes the unique features of Jadid literature, its formation, and its role in society. Jadid literature addresses current topics such as science, education, social justice, and gender equality. The emergence of new genres and their socio-spiritual significance is demonstrated through the works of Fitrat and Cholpon. The Jadid movement made a significant contribution to the development of literature, the awakening of the people, and the renewal of education and culture. The article also emphasizes the relevance of Jadid literature today and its influence on contemporary literature.

Key words: adid, national identity, genre, education, upbringing, literary style, gender equality, psychological depiction.

УНИКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И ЕЕ СОВРЕМЕННОЕ СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Исабаева Асиды Юсуфжановна

*Аспирант Наманганского государственного педагогического института,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, Тел: +998993232423, E-
mail: asida.isabayeva@bk.ru, ORCID: 0000-0003-1432-9651*

Аннотация. В статье анализируются особенности джадидской литературы, её формирование и роль в обществе. Джадидская литература включает в себя такие актуальные темы, как наука, образование, социальная справедливость и гендерное равенство. На примере произведений Фитрата и Чўлпона показано появление новых жанров и их социально-духовное значение. Движение джадидов внесло большой вклад в развитие литературы, пробуждение народа, обновление образования и культуры. В статье также подчеркивается важность джадидской литературы в современности и её влияние на современную литературу.

Ключевые слова: джадид, национальная идентичность, жанр, образование, воспитание, литературный стиль, гендерное равенство, психологическое изображение.

KIRISH (INTRODUCTION)

Jadidchilik harakati XX asrning inqilobiy o'zgarishi sanaladi. Jadid adabiyoti o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sharoitlariga mos ravishda qayta tiklangan yangi uslubdir [Dzhurayev, 2005]. Shu bilan birga u siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotni ta'lim va adabiyot orqali o'zgartirmoqchi bo'lgan kuchli harakatdir. Bu harakat negizida erkin va mustaqil fikrlovchi ilmiy shaxs timsolini yaratish asosiy maqsadlardan biri bo'lgan.

Jadid adabiyoti xalqni ma'rifatlantirish, adabiyotda yangiliklar kiritish, yangi fikr va g'oyalar bilan xalqni uyg'otishga xizmat qilgan [Shohnazarov, 2012]. Fitrat ham Cho'lpon kabi yozuvchilarning asarlariga nazar tashlar ekansiz, o'sha davrning og'riqli nuqtalarini sezishingiz mumkin bo'ladi. Ayniqsa bu Fitratning “Abulfayzxon” hamda Cho'lponning “Kecha va Kunduz” asarlari misolida yorqin gavdalanadi. Bu ikki asar jadid adabiyotining shakllanishida nihoyatda ahamiyatli sanaladi.

METODOLOGIYA (METHODOLOGY)

Maqolada tahlil, yondashuv va usullardan, jumladan, bibliografik tahlil, tarixiy yondashuv hamda matnshunoslik usullaridan foydalanildi. Behbudiy, Fitrat,

Cho’lpon kabi jadid adabiyotining buyuk namoyondalarining asarlari misolida yondashuvlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda jadid adabiyotining o’ziga xos uslubi tahlil qilindi. Jumladan, mavzular, janrlardagi ko’zga tashlangan asosiy xususiyatlar hamda xalqning uyg’onishiga sabab bo’lgan asar va uning mualliflari tahlil qilindi. Fitrat va Behbudiy asarlarini pedagogik metodik jihatdan o’rganib, ularning ta’limda qo’llanishini tahlil qilgan [Salomov, 2011] olimlar ishlariga nazar solinadi. Shu o’rinda, Cho’lpon va Fitratning ijodiga asosiy e’tibor qaratilib, ularning asarlaridan “Kecha va Kunduz” hamda “Abulfayzxon” asarlari tahlil qilindi. Bu asarlar o’sha davr xalqining eng kir va toza ruhiyatini birlashtirib davrning ijtimoiy hayotini ko’rsatib bera olgan va o’sha davr zamonasiga munosib hissa qo’shgan asarlardandir.

Jadid adabiyotining quyidagi xususiyatlari uning o’ziga xosligini ko’rsatadi.

Mavzularning xilma-xilligi. Bugungi kunda dolzarb sanalgan ta’lim, ilm-fan, madaniyat, ma’naviyat, ijtimoiy hamda gender tengligi masalalari jadid adabiyotida ham muhim sanalgan. Buni barcha jadid adabiyoti namoyondalarining asarlarida, xususan Fitrat va Cho’lpon asarlarida ko’rish mumkin.

Uslubiy yangilikning mavjudligi. Jadid adabiyotini o’zini alohida fan sifatida o’rganishimizning sabablaridan biri sifatida undagi uslubiy o’zgarishlarning mavjudligida deyish mumkin. Bunday uslubiy o’zgarishlarga birinchi galda xalq tiliga yaqin atamalar bilan boyitilgan asarlarni misol qilish mumkin. Qolaversa, sodda va yanada tushunarli ifoda uslublarining mavjudligi ham jadid adabiyoti nasriy asarlarining o’ziga xosligining bir ko’rinishidir.

Yangi janrlarning shakllanishi. Xalqni ijtimoiy va madaniy rivojlantirish, savodxon qilish uchun bo’lgan harakatlar doirasida jadid adabiyotida yangi janrlar paydo bo’ldi. Chunki buni jadidlar harakati yuzaga keltirdi. Ya’ni, jadidlar yangi janrlarga e’tibor qarata boshladilar. Buning natijasida drama, roman, publitsistika va bolalar adabiyoti rivojlana boshladi. Bu birinchi galda adabiyotning boyishiga va xalqning uyg’onishiga sabab bo’ldi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Jadid adabiyoti xalqning ijtimoiy va siyosiy qarashlarini o’zining qalami bilan o’zgartira olgan, yangi tafakkurni yaratishga harakat qilgan adabiyotdir. “Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o’quylik. Adiblar yetishdirayluk, “adabiyot kechalari” yasayluk.

Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda “bayoz” va bema’ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz o‘lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo‘shilaturg‘onlar bo‘lsa adabiyotning foydasi to‘g‘rusinda “Oina” va “Sado”larimizga tarixiy va adabiy maqola va she‘rlar yozsunlar, kitoblar tartib bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa – adabiyot, adabiyot, adabiyot...”[Cho‘lpon, 1914]

Fitratning “Abulfayzxon” dramasiada jadidchilikning asosiy g‘oyalaridan sanalgan ilm-fanga e’tibor qaratish va milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilishni ko‘rish mumkin. “Abulfayzxon” murakkab sharoitda, lekin chuqur o‘ylanib, mohirona bitilgan drama[Kamol, 1989]. Xuddi shunday Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida ham ayollarning eng katta muammosi ya’ni, ularning jamiyatda tutgan roli hamda erkinlik masalalari ko‘tariladi. Mavzularning xilma-xilligi va dolzarbligi adabiyotning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini belgilashga xizmat qilgan. Shu bilan birga jadid adabiyotining qirralarini ochishda mavzularining xilma-xilligi bilan “Kecha va kunduz” hamda “Abufayzxon” dramalari alohida ajralib turadi. Ushbu asarlarda inson psixologiyasi bosh mavzu sanaladi. Jadid adabiyotida mavzularning xilma-xilligi nafaqat badiiy ifodaning yangi shakllarini yaratish, balki ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalarni ham o‘z ichiga oldi[Shohnazarov, 2012, p. 58]. Bu o‘rinda nomini tilga olishimiz mumkin bo‘lgan jadidchilarimiz soni ancha. Ularning yaratgan asarlari ham bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Balki, bizga doim insoniylik qadriyatlarni eslatib turadi. Deyarli barcha jadid adabiyoti asarlarida ko‘tarilgan mavzular ijtimoiy muammolar, tarix bilan bog‘liqlik, qahramonlarning shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan intilishi, ayollarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va eng asosiysi milliy o‘zlikni anglash kabi masalalar yoritilgan.

Jadid adabiyotida chuqur psixologik tasvirlarni ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, Cho‘lpon oddiy odamlarga ham yanada yaqin bo‘lishga erisha oldi. Uning asarlarining tili juda soda va tushunarligi bilan ajralib turardi. Qahramonlarning ichki kechinmalarini yoritish orqali go‘yoki jamiyat illatlarini, siyosiy hayotni tahlil qilayotgandek bo‘ladi mualliflar. Shungdek, Fitratning ham asarlarida zamonaviy muhitga moslashuv sezila boshladi. U dramaturgiya elementlarini mohirona qo‘lladi va diolog drama asarlarini ta’sirchan qilishini isbotlab berdi. Shuningdek, “Abulfayzxon” dramasiining sahnada mashhur bo‘lishi Fitratning sahna bilan bog‘liq

oʻzgarishlarni kiritishi orqali namoyon boʻladi. Eng muhimi drama sahnalarining qisqa, lekin muhim epizodlar bilan boyitilganligi tomoshabinni yanada qiziqтира olgan.

Jadid adabiyotida yangi janrlarning paydo boʻlishi orqali xalqqa boʻlgan murojaatlarning yangicha usullari yuzaga kelgandek goʻyo. Endilikda xalq faqatgina oʻqib emas, balki aniq koʻzi bilan jarayonni tomosha qilishi ham mumkin edi. Shu bilan birga Fitrat sahna sanʼatini oʻzining yaratgan dramatik texnikalari orqali ham boyitdi. A. Qodiriy “Oʻtkan kunlar” romani bulan romanchilikka asos soldi. Xuddi shunday Choʻlpon “Kecha va kunduz” romani orqali urf-odat va qadriyatlarni yangicha usullarda talqin qildi. Roman janrining paydo boʻlishi hikoya janrining rivojida ahamiyatli boʻldi. Yaʼni, endilikda hikoyalar qisqa, mazmunli va taʼsirchanligi bilan ajralib turardi. Shu oʻrinda jadidlar publitistika janridan ham unumli foydalanishdi. Chunki, texnika bugungidek rivojlanmagan bir zamonda xalq yangilik va voqealardan xabardor boʻlish maqsadida gazeta va jurnallarga koʻproq murojaat qilardi. Maqola, ocherk, pamfletlar xalqni yangicha qarashlari uchun muhim vosita boʻlib xizmat qila olgan. Jadidlar bolalarni ham unutishmagan. Yetilib kelayotgan millatni ilmga mehr ruhida tarbiyalash maqsadida bolalar uchun ham asarlar yaratilgan. Yuqorida keltirilgan yangi janrlar adabiyotning ravnaqi uchun zarurligidan tashqari xalqning maʼnaviy yuksalishida katta rol oʻynadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Markaziy Osiyoning bugungi kun ravnaqida jadidchilik harakatining oʻrni katta deyishimiz mumkin. Chunki, jadidchilar yaratgan asarlar faqatgina mahalliy hududda emas, balki keng ommalashgan. Bizning ijodkorlarni butun Markaziy Osiyo xalqlari sevib oʻqigan. Jadid adabiyoti nafasi faqat oʻsha davrlar uchun emas, balki zamonaviy adabiyot uchun ham zarurdir. Uning mavzulari hozir ham muhimdir. Xuddi shunday Fitrat bilan Choʻlpon kabi buyuk jadidlar tomonidan yozilgan asarlar ham hali-hanuz oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Ularning qalamiga olingan masalalar, ilm-fan, taʼlim, oʻzlikni anglash, jamiyatda ayollarning roli nafaqat oʻsha davr uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarbligini yoʻqotmagan. Xalqni noanʼanaviy fikrlashga undovchi yangiliklardan biri sifatida adabiyot sahnasida roman, drama, publitistika va bolalar adabiyoti kabi janrlar paydo boʻldi. Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyoti nasriy asarlarida koʻtarilgan masalalar hali ham oʻz qiymatini yoʻqotmagan, balki bugungi kun jamiyatimiz rivojida oʻzining hissasiga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Cho'lpon, A. (1914, iyun 4). Adabiyot nadir? *Sadoi Turkiston*, 4.
2. Dzhurayev, D. A. (2005). "Jadid adabiyotining rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari." Toshkent, O'zbekiston.
3. Kamol, J. (1989, April 14). "Abulayzxon" – to'ng'ch tarixiy drama. *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*.
4. Salomov, N. (2011). *Jadid adabiyotining estetikasi*. Toshkent: Sharq.
5. Shohnazarov, M. H. (2012). *Jadid adabiyotining tahlili va uning ijtimoiy ahamiyati* (p. 58). Toshkent: O'zbekiston.
6. Shohnazarov, M. H. (2012). *Jadid adabiyotining tahlili va uning ijtimoiy ahamiyati*. Toshkent, O'zbekiston.